

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
NOMLI III ILMIY ONLAYN KONFERENSIYA
SHOFIRKON TOPONIMIKASIDA ETNONIMLAR TAHLILI.**

SULTONOVA MUNAVVAR DILMUROD QIZI

**OSIYO XALQARO UNIVERSITETI TARIX TA'LIM YO'NALISHI
TALABASI**

YARSHOVA MOHLAROYIM SHUHRAT QIZI

**OSIYO XALQARO UNIVERSITETI TARIX VA FILOLOGIYA
KAFEDRASI O'QITUVCHISI**

Toponimika tarix faninig yordamchi fanlar sirasiga kiradi. Joy nomlarini tahlil qilish, o'rganish asnosida, hududga aloqador bo'lgan tarixiy ma'lumotlar: aholining qadimgi mashg'ulotlari, hududning geografik joylashuvi va vaqt davomi undagi sodir bo'lgan o'zgarishlar, hududning tabiati, iqlimi, hayvonot va o'simlik dunyosi, suv havzalari, shuningdek, hududda yashqab o'tgan turli xalq vakillarining izlarini o'rganish mumkin. Toponimlar har doim ham biron bir tarixiy sharoit taqazosi bilan vujudga keladi.

Shofirkon tumani boy tarixga ega tumanlardan biridir. «Shofirkon» so'zining kelib chiqishi Vardonze qo'rg'onining paydo bo'lishi bilan uzviy bog'liq bo'lib, bu haqda X asrda yashab o'tgan mashhur tarixchi olim Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far an-Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asarining “Buxoro va uning atrof yerlaridagi anhorlar” nomli XIII bobida bu haqida ma'lumot berib o'tgan. [1, B.34-35.] Narshaxiy bergan ma'lumotlarga tayanadigan bo'lsak, Shofirkon toponimi shaxs nomi bilan bog'liq holda vujudga kelgan.

Tumanning o'zida ham aksar joy nomlari qadimiy nomlanishini saqlab qolgan bo'lib, ular tuman tarixini yoritishda katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Quyida tuman toponimikasidagi etnonimlar tahlil qilinadi. Geografik nomlar tizimida etnonim va etnotoponimlar salmoqli o'rin egallaydi. Etnotoponimlar tildagi eng qadimgi toponimik qatlam hisoblanadi. Ular uzoq tarixiy davrning yodgorligi bo'lib ma'lum xalqning tarixini, milliy tarkibini o'rganishda ularning geografik tarqalish chegarasini ko'rsatishda va aniqlashda muhim manba sifatida g'oyatda qimmatlidir.

ARAB(PAXTAKASH)LAR. Markaziy Osiyoning ko'pgina hududida bo'lgani singari, tuman yerlariga VIII—IX asrlarda Markaziy Osiyoga kelib qolgan arablar bugungi kunda o'zbeklar bilan qo'shilib ketgan bo'lsalarda, o'z nomlarini saqlab qolganlar. Arablar qishlog'ida ularning vakillari yashaydi. 1930-yillarga qadar qishloq «Paxtakashlar» deb yuritilgan. Chunki bu qishloq aholisining

FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI NOMLI III ILMIY ONLAYN KONFERENSIYA

ko'pchiligi paxtani chigitdan ayirish bilan tirikchilik qilgan. Biroq vaqt o'tib, paxtakashlik kasbi barham topgach, qishloq nomi ham Arablar deb yuritiladigan bo'ldi.[2,B.66.] Shuni qayd etib o'tish joizki, arablar nomi bilan ataluvchi joy nomlari Respublikaning deyarli barcha hududida uchraydi. Bu mintaqaga o'rta asrlarda arablar tomonidan amalga oshirilgan yurishlar va arablarning ko'chib o'tishi bilan bog'liq bo'lgan jarayondir. Shuningdek, tumanda hozirgi kunga qadar arablar etnonimi bilan bog'liq yana bir qancha qishloqlar mavjud (Arabxona, Arabcha).

DO'RMAN. Do'rman — XVI—XVII asrlarda Dashtiqipchoqdan kelgan o'zbek qabilalaridan birining nomi. Do'rman qishlog'i qadimda O'rta Qo'rg'on, Do'rman va Torko'cha to'plaridan iborat bo'lib, aholi orasida bu yerlarda 24 ta masjidi bo'lgan degan fikrlar mavjud. Do'rman qabilasining qo'yli, uvoq, uch urug', ko'kchelak, sakson, no'g'ay, churdak, oytamg'ali kabi urug'lari bo'lgan. 1920—1930-yillarda Sultonobod tumani (markazi Do'rman) bilan Bauman tumani (markazi Xoja Orif) tashkil etilgan paytlarda qirg'izlar va uch urug'lar o'rtasidagi qadimdan an'anaga aylangan musobaqalar avjiga chiqqan. Ayniqsa, ko'pkari o'yinlari nihoyatda qiziqarli o'tgan. 1929 yil oxiri va 1930 yil boshida Buxoro va G'ijduvondan o'nlab mashkoblari (suv tashuvchilar) xonadonlari Do'rmanga ko'chirib keltirildi. Bugungi kunda mashkoblari turg'un aholi tarkibiga singib ketganlar.[2,B.82-83.]

KELACHI. Kelachi—o'zbek urug'laridan birining nomi bo'lib, bu urug' vakillari respublikamizning turli joylarida yashashadi. Masalan, Marg'ilon shahrida Katta Kelachi va Kichik Kelachi degan guzarlar bor. Shundan kelib chiqib qishloq nomi ana shu urug' nomidan olingan degan xulosga kelish mumkin.

MINGON. Mingon — tojikcha: «Minglar», ya'ni «Ming urug'i vakillari yashaydigan joy, qishloq» demakdir. Minglar o'zbek millati tarkibiga kirgan eng katta urug'lardan sanaladi. Ming urug'i vakillari O'zbekistonning deyarli barcha viloyatlarida uchraydi. Ayniqsa, Samarqand, Jizzax, Farg'ona, Buxoro hududida uyushgan holda, Surxondaryo, Xorazm va Tojikistonda tarqoq holda yashaganlar. Minglarni ba'zan tumon yoki tumonming deb ham ataganlar. Mingon qishlog'i Kunjirud (ariq burchagi, yoqasi), Tagimasjid (masjidning tagi, atrofi) qishloqlarini birlashtirgan.[2,B.108.]

MO'G'ULON. Mo'g'ulon tojikcha: «mo'g'ullar» deganidir. Tarixdan ma'lumki, XIII asrda Chingiz istilosi tufayli ko'plab mo'g'ullar Markaziy Osiyoga kelib o'rtnashgan, yillar o'tishi bilan ular mahalliy aholiga singib ketdilar, Mo'g'ulon nomi shundan saqlanib qolgan.

FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI NOMLI III ILMIY ONLAYN KONFERENSIYA

SUG'UT. Sug'ut — sug'd so'zining buzilgan shakli bo'lib, qadimiy sug'diylar yashagan maskanlardan hisoblangan. Ammo ushbu joy nomining nafaqat etnonimlar bilan, shuningdek geografik xususiyatga ko'ra nomlanishi bilan ham bog'liqligi mavjud. «Sug'd» forscha «suh» so'zidan olingan bo'lib, «yaltiramoq, nur sochmoq» degan ma'noni bildiradi. «G'iyos-al-lug'at» va boshqa qadimiy lug'atlarda suv to'planib qoladigan past tekislik «sug'd» deyilgani qayd etilgan. Sharqshunos V. L. Vyatkin qeltirgan ma'lumotlarda sug'oriladigan unumdor yerlar «sug'ud» deyilgan bo'lsa, tojikchada sug'ud—«botqoq bosgan past joy», «sersuv obod joy» ma'nosini ifodalaydi.[2,B.124.] Qizig'i shundaki, yuqoridagi fikrlarning hammasida ham haqiqat borgan o'xshaydi. Birinchidan, hozirgi Sug'ut qishlog'ining sharqiy qismida Jabbor ko'li degan katta ko'l bo'lgan. Ikkinchidan, ko'l uzoqdan quyosh va oy nurida yaltirab ko'ringan. Shuning uchun ko'l «Oydin ko'l» deb ham atalgan. Uchinchidan, Sug'ut qishlog'i sersuv joyda o'rnashgan. Shuning uchun ham ushbu joy nomining nomlanishi etnik xususiyatdan ko'ra ko'proq geografik xususiyatiga borib taqaladi.[3]

CHANDIR. VIII—IX asrlarda turkman urug'idan bo'lgan Chandir qabilasi Sirdaryoning o'rta va quyi oqimida, Orol dengizining janubidagi cho'llarda yashovchi o'g'uzlar tarkibida bo'lgan. Keyinchalik chandirlarning bir qismi Movarounnahrda o'tib, o'zbeklar tarkibiga, ikkinchi qismi turkmanlar yeriga o'tib, aralashib ketgan. XVI—XVII asrlarda ham turkman cho'llaridan ko'plab chandirlar Xiva va Buxoro xonligiga ko'chirtirib kelingan. Chandir so'zining kelib chiqishi haqida xalq orasida Chodir (chayla), chandir teri ma'nosida, ilmiy manbalarda esa «Duragay, qurama» degan ma'noni ifodalashi haqidagi fikrlar mavjud.[2,B.137.] Aslini olganda, biror bir urug', qabila yo'qki, u boshqa urug', qabila bilan aralashib, chatishib-ketmagan bo'lsa. Shu nuqtai nazardan Chandir etnonimi «aralashgan, duragay, qurama» degan ma'noni ifodalashi bejiz emas.

QALMOQ. Qishloq «Buyuk Ipak yo'li» ustida joylashgan bo'lib, aslida Sayid ota qabristonining sharq tarafida bo'lgan. Bu erda o'tkinchi savdogarlar uchun qo'noq—baqqolxona, oshxona, sayisxona kabilar bo'lgan. Qishloqning Qalmoq deb nomlanishi haqida shunday bir rivoyat bor: Qalmoq urug'idan bo'lgan bir savdogar shu qishloqlik qizga uylanadi. Undan farzand ko'radi. Bolaga Tursunboy deb nom qo'yadilar. Tursunboy qalmoqdan Rajabboy qalmoq tug'iladi. Rajabboy qalmoq 3 o'g'il ko'radi. Ularning ismi Mirzoboy qalmoq, Muhammad qalmoq va Sayyid qalmoq edi. Qishloq ana shularning kelib chiqishiga (urug'iga) nisbat berilib «Qalmoq» nomini olgan.

FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI NOMLI III ILMIY ONLAYN KONFERENSIYA

O'zbek qavmlari to'g'risida ma'lumot bergan deyarli barcha olimlar qalmoq urug'ini tilga oladilar. Jumladan, Buxoro vohasidagi qalmoqlar haqida N. Xanikov ma'lumot bergan («Opisanie Buxarskogo xanstva», 58-bet). Qalmoq so'zining etimologiyasi to'g'risida turlicha fikrlar mavjud: Qalmoq — qolmoq so'zidan olingan bo'lib, «ajralib qolmoq», «islom dinidan chetda qolgan» demakdir. V.P. Darbakovaning fikricha, qalmoq etnonimi qalmoq va mo'g'ul tillaridagi Xalimog so'zidan olingan bo'lib, «aralash», «qurama» degan ma'noni bildiradi. Mirzo Ulug'bek «Tarix-i arba' ulus» asarida Qalmoq so'zi haqida shunday deydi: «Hazrati Sayidotaga (unga Allohning rahmati va rizoligi bo'lsin) quloq solishdan bo'yin tovlaganlar bu saodatdan bebahra holda u yerda qoldilar va Qalmoq degan nomga mansub bo'ladilarki, buning ma'nosi «Qolgan» demakdir»

QIYOT.Qiyot — qadimiy turkiy (qozoqlarga yaqin) urug'lardan birining nomi. Qiyot 92 bovli o'zbek «qavmlari» tarkibida tilga olinadi. Abulg'oz Bahodirxon o'zining «Shajarai turk» asarida «qiyot» mo'g'ulcha «tog'dan oq qan sel» ma'nosidagi «qiyon» so'zining ko'pligidir, deydi. Bu fikrni turkiyshunos akademik V. V. Radlov ham isbotlagan. Qiyotliklar asli Ko'hna Vardonze qal'asining tashqarisida yashagan. Qum ko'chishi tufayli ular hozirgi joyga kelib qolganlar. [2,B.163.]

QIZILON.Qizilon toponimining kelib chiqishi 2 xil talqin etiladi: Ularning birida qozoqlarning qizil urug'i vakillari yashaydigan joy («qizil» — urug' nomi, «on»—lar ko'plik qo'shimchasi, ya'ni qizillar) deyilsa, ikkinchisida 40 ta hur qizning ilonga aylangan joyi deyiladi (Ma'lumki, xalq og'zaki ijodidagi «Qirq qiz» afsonalarida qirq qiz g'oyib bo'ladi yoki turli jonivor va narsalarga aylanadi). Qizilon qishlog'i aholisi cho'ldan ko'chib kelgan. Qizilonliklarning bir qismi Shexlar qishlog'ida qolishgan.

QORABOSH.Manbalarda qirq qabilasining bir tarmog'i qora deb ataladi. Umuman «qora» etnonimi bilan bog'liq turkiy xalqlarning bir necha urug' tarmoqlari mavjud. Qoraxoni, Qoramurt, Qoranayman, Qorapichoq, Qorapoycha, Qorason, Qorasuv, Qorateri, Qorauy, Qoracha, Qorao'zak kabilar shular jumlasidandir. Qorabosh ham, bizningcha, ana shunday urug' tarmoqlaridan birining nomidan kelib chiqqan.

QOG'ATON.Qog'aton— aslida «Qatag'on» bo'lib, o'zbek millati tarkibiga kirgan yirik qabila-urug' nomini ifodalaydi.Qatag'on xalq tilida keyinchalik Qog'aton bo'lib ketgan.Qog'atonlarning asosiy qismi Afg'onistonning Qog'aton viloyatida yashaydi.Markaziy Osiyoda qog'atonlar Tojikistonning Vaxsh, Yaxsuv vodiylarida, Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarida yashaydilar.

FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI NOMLI III ILMIY ONLAYN KONFERENSIYA

QURAMA. Qurama — aralash degan ma'noni bildiradi. Qishloq aholisi turli o'lka va joylardan kelib o'rinishib, har xil urug' va qabilalardan tarkib topgan. Shuning uchun ular qishloqni aralashgan qishloq — Qurama deb ataganlar. Keksalarning ta'kidlashicha, qishloq aholisi asli Vardonze, Qizil O'rda, Qutayba, Urganch, Qo'ng'iro't tomonlardan bo'lgan bo'lgan.

HALOJIYON. Halaj (halach) qadimgi qabila nomi. Halajlar X asrdayoq turkiy xalqlardan janubda, hozirgi Afg'onistonning janubiy qismida yashagan.

Etnograf B. X. Karmisheva ma'lumotlariga qaraganda, halajlar Qobodiyon (Tojikistonda, Kofirnihon daryosi bo'yida) va Mug'on cho'li (Ozarbayjon)da o'rinishib qolganlar va fors tilida gaplashadilar. Halajlar asli turk bo'lganlar. Bu haqda Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» va boshqa asarlarda ma'lumotlar bor. Kogon, qo'shni Vobkent tumanlarida, Samarqand viloyatining Ishtixon va boshqa ko'plab joylarida ham halajlar yashaydi. Halojiyon — haloji so'zidan, ya'ni paxtani chigitidan ayiruvchi asbob nomidan olingan. Haqiqatan ham bu qishloqda qadimda haloji yasovchi usta, haloji tortuvchi kasb egalari ko'p bo'lgan. 1925 yilda qishloq vayron etilgan. Aholisi turli yurtlarga haydalgan. 50-yillarda qishloq yana tiklandi.[2,B.175.]

Yuqorida qayd etilgan joy nomlarining kelib chiqishi ma'lum millat, urug' vakillarining tuman hududdida ko'chib kelib o'rinishgani bilan bog'liq bo'lsada, ba'zilarining nomlanishi xalqning qadimiy afsonalariga ham borib taqaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Abu Bakr Narshaxiy. Buxoro tarixi. Fors tilidan Rasulev A. tarjimasi.- T.: "Fan", 1966.
2. Muxtor S, Bobomurod K. Shofirkon tarixi.- T.: «Yozuvchi» 1998.
3. Dala tadqiqoti., 2021 yil noyabr-dekabr, Shofirkon tuman., Do'rman qishlog'i.